
"Temur tuzuklari" o’quv qo’llanmasi chop etildi

Amir Temur nomidagi O’zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati akademiyasi va Fanlar akademiyasi Tarix instituti "O’rta asrlar tarixi" bo’limi bilan hamkorlikda "Temur tuzuklari" o’quv qo’llanmasi chop etildi.



Ushbu qo’llanma buyuk bobomiz Amir Temur qalamiga mansub "Temur tuzuklari" asarining mazmun-mohiyatini ochib berish, unda keltirilgan qarashlar va tartib-qoidalarning tarixiy ahamiyatini zamonaviy yondashuvlar asosida yoritishga bag’ishlangan. Qo’llanmada sohibqiron Amir Temurga xos insoniy fazilatlar, jumladan, keng dunyoqarashga ega bo’lish, muntazam o’z ustida ishlash, e’tiqodli va sabr-toqatli bo’lish, millit hamda davlat uchun sodiq xizmat qilish kabilarni bayon etishga alohida urg’u berilgan.

Tuzuklar asosida shakllantirilgan har bir mavzu tarixiy manba va adabiyotlarda keltirilgan misollar hamda qo’shimcha ma’lumotlar, shuningdek, yangi O’zbekiston hayotiga doir lavhalar bilan boyitilgan.

“Temur tuzuklari” nomli ushbu o’quv qo‘llanma harbiy-akademik litsey o‘quvchilari uchun mo‘ljallanib, undan harbiy ta’lim muassasalari kursantlar va tinglovchilar hamda boshqa kitobxonlarga ham mo‘ljallangan.